



NAVOIY VILOYATI AHOLISINING TABIIY HARA-KATI VA DEMOGRAFIK O'ZGARISHLAR DINAMIKASI

Sattorov Nozimjon Naimjon o'g'li

Geografiya mutaxassisligi I-bosqich magistranti

Namangan davlat universiteti (Namangan shahri, O'zbekiston)

Email: nozimjonsattorov2002@gmail.com

Annotatsiya: *Mazkur maqolada Navoiy viloyati aholisining tabiiy harakati va demografik o'zgarishlar 2010-2024-yillar dinamikasi ilmiy-statistik jihatdan tahlil qilingan. Tadqiqot jarayonida aholining tug'ilish, o'lim va tabiiy o'sish ko'rsatkichlari, shuningdek, aholi soni va tarkibidagi o'zgarishlar yillar kesimida o'rganildi. Rasmiy statistika ma'lumotlari asosida viloyatda demografik jarayonlarning hududiy xususiyatlari hamda ularning ijtimoiy-iqtisodiy omillar bilan bog'liqligi ochib berildi. Olingan natijalar Navoiy viloyatida aholining tabiiy o'sishi ijobiy tendensiyaga ega ekanini ko'rsatadi. Tadqiqot natijalari hududiy demografik siyosatni takomillashtirish va aholi resurslaridan samarali foydalanishda amaliy ahamiyatga ega.*

Kalit so'zlar: *Demografik jarayonlar, tug'ilish, o'lim, nikoh, ajrim, tabiiy o'sish, migratsiya, aholi tarkibi, demografik tahlil, aholi dinamikasi.*

Kirish. Aholining demografik holati va uning o'zgarish jarayonlarini o'rganish har bir hududning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish darajasini baholashda muhim ilmiy ahamiyatga ega. Aholining tabiiy harakati — tug'ilish, o'lim va tabiiy o'sish ko'rsatkichlari — jamiyatning demografik salohiyati, mehnat resurslari shakllanishi hamda hududiy rivojlanish istiqbollarini belgilovchi asosiy omillardan biri hisoblanadi. Shu bois demografik jarayonlarni hududlar kesimida tahlil qilish zamonaviy demografiya va ijtimoiy geografiya fanlarining dolzarb yo'nalishlaridan biridir.



Navoiy viloyati O'zbekiston Respublikasining yirik hududlaridan biri bo'lib, o'zining geografik joylashuvi, tabiiy resurslarga boyligi hamda sanoat tarmoqlarining rivojlanganligi bilan ajralib turadi. Viloyat hududining katta qismi kam aholi zichligiga ega bo'lsa-da, so'nggi yillarda aholining soni va tarkibida muayyan demografik o'zgarishlar kuzatilmoqda. Ushbu o'zgarishlar asosan tabiiy harakat ko'rsatkichlari, migratsiya jarayonlari hamda ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlar bilan chambarchas bog'liqdir.

Tadqiqotning maqsadi va vazifalari: Mazkur tadqiqotning asosiy maqsadi Navoiy viloyati aholisining tabiiy harakati va demografik o'zgarishlar dinamikasini ilmiy-statistik jihatdan tahlil qilish, demografik jarayonlarning hududiy xususiyatlarini aniqlash hamda ularning ijtimoiy-iqtisodiy omillar bilan o'zaro bog'liqligini ochib berishdan iborat.

Tadqiqot maqsadiga erishish uchun quyidagi **vazifalar** belgilandi:
-Navoiy viloyatining demografik holati va aholining umumiy soni o'zgarishlarini yillar kesimida tahlil qilish;

Adabiyotlar tahlili va metodologiyasi. Ushbu maqolani yoritib berishda rasmiy demografik va ijtimoiy-iqtisodiy statistik to'plamlar ma'lumotlaridan foydalanilgan. Tahlillarni amalga oshirishda geografik taqqoslash, monografik tahlil, statistik tahlil metodlaridan foydalanilgan.

Navoiy viloyatining ijtimoiy-iqtisodiy va hududiy rivojlanishi masalalari so'nggi yillarda respublika miqyosida chop etilgan ilmiy maqolalar, monografiyalar va tahliliy hisobotlarda keng yoritilmoqda. Xususan, hududiy rivojlanish, sanoat geografiyasi va aholi joylashuvi masalalariga bag'ishlangan ilmiy manbalarda Navoiy viloyati sanoatlashgan va resurslarga boy mintaqasi sifatida baholanadi.

Mahalliy tadqiqotchilar tomonidan olib borilgan ilmiy ishlarda viloyatning tabiiy-resurs salohiyati, konchilik va qayta ishlash sanoatining rivoji, transport-logistika infratuzilmasining hududiy o'rni asosiy tadqiqot obyekti sifatida qaralgan.



Shu bilan birga, aholi geografiyasiga oid adabiyotlarda demografik o'sish, urbanizatsiya jarayonlari, mehnat resurslarining hududiy taqsimlanishi va ichki migratsiya masalalari tahlil qilingan.

Xorijiy ilmiy manbalarda Navoiy viloyati Markaziy Osiyoning qurg'oqchil hududlarida sanoat rivojlanishi, tabiiy resurslardan foydalanish samaradorligi hamda ekologik barqarorlik masalalari bilan bog'liq holda o'rganiladi. Ayniqsa, konchilik sanoatining atrof-muhitga ta'siri va cho'l hududlarida xo'jalik faoliyatini olib borish bilan bog'liq muammolar dolzarb ilmiy masala sifatida ko'rsatib o'tiladi.

Mavjud adabiyotlarni umumlashtirgan holda aytish mumkinki, Navoiy viloyatining ayrim hududiy va demografik jarayonlari bo'yicha ilmiy qarashlar mavjud bo'lsa-da, ularni kompleks va zamonaviy statistik ma'lumotlar asosida baholashga ehtiyoj saqlanib qolmoqda. Mazkur maqola aynan ushbu ilmiy bo'shliqni to'ldirishga qaratilgan. Xususan, Q.X.Abdurahmonov[1], M.Q.Qoraxonov[8], I.R.Mullajonov[9], A.S.Soliyev[2;6], A.A.Qayumov[4], R.G.Asanov[5], M.Bo'riyeva[3], Z.N.Tojiyeva [7] kabi olimlarning tadqiqotlarida markaziy o'rin olgan. Jumladan, aholi soni, tug'ilishi, o'limi, nikoh va ajralish, tabiiy o'sish dinamikasi jarayonlari hamda joylashuvi kabi demografik jarayonlarni va bu jarayonlarga ta'sir etuvchi omillar chuqur tahlil etilgan.

-aholining tabiiy harakati ko'rsatkichlari — tug'ilish, o'lim va tabiiy o'sish darajasini ilmiy asosda o'rganish;
--viloyat aholisi tarkibidagi (yosh va hududiy tuzilma) demografik o'zgarishlarni aniqlash;
- demografik jarayonlarga ta'sir etuvchi asosiy ijtimoiy-iqtisodiy omillarni baholash;
-aholi tabiiy o'sishining hududiy rivojlanish bilan bog'liqligini tahlil qilish;
-tadqiqot natijalari asosida hududiy demografik siyosatni takomillashtirish bo'yicha ilmiy-amaliy takliflar ishlab chiqish.

Asosiy qism. Navoiy viloyati aholisi O'zbekistonning jami aholisi ichida nisbatan kichik ulushni egallaydi. 2025-yil holatiga ko'ra, O'zbekiston



Respublikasi aholisi taxminan 37,9 million kishidan iborat bo'lgan. Shunga nisbatan Navoiy viloyatining doimiy aholisi taxminan 1,09 million kishi atrofida (1,094,7 ming) bo'lib, bu mamlakat aholisining atigi 2,8–2,9 % ini tashkil etadi. Bu viloyat aholining eng kam ulushiga ega hududlardan biri ekanidan dalolat beradi.

Shuningdek, Navoiy viloyati O'zbekiston hududlarining eng katta maydonini egallaydi (taxminan 111 095 km²), biroq aholi zichligi juda past bo'lib, viloyat hududi kattaligiga qaramasdan, bu hudud aholining kichik qismini qamrab oladi. Bu demografik holat hududning geogra- fik sharoiti (katta qismi cho'l va yarim cho'l zonasi) hamda iqtisodiy migratsiya jarayonlari bilan izohlanadi — ko'p yoshlar ish izlab boshqa hududlarga ko'chib ketadi.

Demografik tuzilma bo'yicha ham Navoiy viloyati o'ziga xos xususiyatga ega: shahar va qishloq aholisi nisbatan deyarli teng taqsimlangan — shahar aholisi taxminan 49,2 % ni, qishloq aholisi esa 50,8 % ni tashkil etadi. Bu ko'rsatkichlar viloyat ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlarining zonal farqlarini aks ettiradi.

Yuqorida keltirilgan tug'ilish va ajralish ko'rsatkichlari kontekstida viloyat oilaviy demografik jarayonlari bo'yicha ham umumiy mamlakatdan farq qiluvchi tendensiyalar ko'rinadi: nikohlar soni pasayib borayotganiga qaramay, ajralishlar nisbatan yuqoriligicha qolmoqda. Bu o'z navbatida ijtimoiy o'zgarishlar, yoshlar orasida nikohga kirish kechikishi va oilaviy barqarorlik masalalariga jiddiy e'tibor qaratishni talab qiladi.

Umuman olganda, Navoiy viloyati demografik ko'rsatkichlarining mamlakat kesimidagi o'rnini uning keng hududiga qaramasdan nisbatan past aholi zichligi va kichik aholi ulushi ekanligi bilan izohlanadi, bu esa hududni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish strategiyasida aholi yirik markazlardan uzoqligini kamaytirish, migratsiya oqimini nazorat qilish, va oilaviy siyosatni mustahkamlash kabi yo'nalishlarga e'tibor qaratishni talab qiladi.



**1-jadval. 2010–2024-yillarda Navoiy tumani aholisi demografik
xususiyatlari bo'yicha asosiy ko'rsatkichlar**

1-jadval

T/r	Yillar	Doimiy aholi soni (ming kishi)	Tug'ilish (ming kishi)	O'lim (kishi)	Tabiiy o'sish (ming kishi)	Ko'chib ketganlar (kishi)	Ko'chib kelganlar (kishi)	Migratsiya saldosi (kishi)
1	2010	851600	18409	3984	14425	13719	11442	-2277
2	2011	873000	18045	4107	13938	17094	11390	-5704
3	2012	881200	18067	4153	13914	18859	12134	-6725
4	2013	888400	19300	4103	15197	14804	12321	-2483
5	2014	901100	20116	4188	15928	16846	13001	-3845
6	2015	913200	20259	4110	16149	13235	11752	-1483
7	2016	927900	20837	4401	16436	13659	12104	-1555
8	2017	942800	20563	4472	16091	13887	13047	-840
9	2018	958000	21595	4161	17434	14110	13145	-965
10	2019	979500	22770	4378	18392	11368	10540	-828
11	2020	997100	23888	5038	18850	10569	8250	-2319
12	2021	1013600	26576	4848	21728	11026	9524	-1502
13	2022	1033900	26274	4156	22118	9239	8721	-518
14	2023	1055500	26805	4588	22217	12945	10539	-2406
15	2024	1075300	25763	4881	20882	13786	12341	-1445



Izoh: Ushbu jadval O'zbekiston Respublikasi statistika qo'mitasi rasmiy sayti: www.stat.uz ma'lumotlari asosida mualliflar tomonidan tuzildi

Jadval ma'lumotlari 2010–2024 yillar oralig'ida hudud doimiy aholisi sonining barqaror o'sish tendensiyasiga ega ekanligini ko'rsatadi. Mazkur davrda aholi soni 2010 yildagi 851,6 ming kishidan 2024 yilga kelib 1 075,3 ming kishiga yetib, umumiy hisobda qariyb 223,7 ming kishiga oshgan. Bu holat, avvalo, yuqori tabiiy o'sish ko'rsatkichlari bilan izohlanadi.

Tug'ilish darajasi tahlili shuni ko'rsatadiki, ayrim yillarda (xususan, 2018–2023 yillar oralig'ida) tug'ilishlar soni 21–26 ming kishi atrofida shakllanib, demografik faollikning kuchayganini ifodalaydi. Ayniqsa, 2021–2023 yillarda tug'ilish ko'rsatkichlarining yuqori bo'lishi natijasida tabiiy o'sish eng yuqori darajaga yetgan. Masalan, 2022–2023 yillarda tabiiy o'sish 22 ming kishidan oshib, butun davr bo'yicha eng yuqori natijalarni qayd etgan.

O'lim ko'rsatkichlari esa, umuman olganda, nisbatan barqaror bo'lib, ayrim yillarda (jumladan, 2020 yilda) keskin oshgani kuzatiladi. Bu holat global epidemiologik vaziyat va sog'liqni saqlash tizimiga tushgan yuklama bilan bog'liq bo'lishi mumkin. Shunga qaramay, o'lim darajasining tug'ilishdan ancha past bo'lishi tabiiy o'sishning ijobiy saqlanib qolishiga imkon bergan.

Migratsiya jarayonlari tahlili hudud uchun salbiy migratsiya saldosi xos ekanligini ko'rsatadi. Barcha yillarda ko'chib ketganlar soni ko'chib kelganlardan yuqori bo'lib, ayniqsa 2011–2012 va 2020–2023- yillarda migratsiya saldosi sezilarli darajada manfiy bo'lgan. Bu holat asosan mehnat migratsiyasi, iqtisodiy imkoniyatlarning boshqa hududlarda ko'proq jamlanganligi bilan izohlanadi.

Umuman olganda, tadqiqot davrida hudud aholisining o'sishi asosan tabiiy demografik omillar hisobiga ta'minlangan bo'lib, migratsiya saldosing manfiy



bo'lishiga qaramasdan, yuqori tug'ilish darajasi umumiy aholi sonining ortib borishiga xizmat qilgan.

***1-jadval. 2010–2024-yillarda Navoiy tumani aholisi tuzilgan nikohlar soni
va nikohdan ajralishlar soni bo'yicha asosiy ko'rsatkichlar***

2-jadval

Yillar	Tuzilgan nikohlar soni (ming kishi)	Nikohdan ajralishlar soni (ming kishi)	Tuzilgan nikohlar koeffitsiyent(% hisobida)	Nikohdan ajralishlar koeffitsiyent(% hisobida)
2010	9559	575	11,22	0,68
2011	10022	761	11,48	0,87
2012	9748	718	11,06	0,81
2013	9316	940	10,49	1,06
2014	9179	1082	10,19	1,20
2015	9037	1127	9,90	1,23
2016	8628	1026	9,30	1,11
2017	8925	1115	9,47	1,18
2018	9012	997	9,41	1,04
2019	8939	942	9,13	0,96
2020	9080	931	9,11	0,93
2021	9210	1224	9,09	1,21
2022	8510	1431	8,23	1,38
2023	7951	1492	7,53	1,41
2024	7538	1258	7,01	1,17

*Izoh: Ushbu jadval O'zbekiston Respublikasi statistika qo'mitasi rasmiy
sayti: www.stat.uz ma'lumotlari asosida mualliflar tomonidan tuzildi[11]*



Jadval ma'lumotlari 2010–2024 yillar oralig'ida hududda nikoh va nikohdan ajralish jarayonlarida sezilarli tarkibiy o'zgarishlar yuz berganini ko'rsatadi. Tadqiqot davrining dastlabki yillarida tuzilgan nikohlar soni nisbatan yuqori bo'lib, nikoh koeffitsiyenti 11% dan ortiq darajada shakllangan. Bu holat aholining nikohga kirish faolligi yuqori bo'lgan davrni ifodalaydi.

Keyingi yillarda, xususan 2014 yildan boshlab, tuzilgan nikohlar soni va ularning koeffitsiyentida izchil pasayish tendensiyasi kuzatiladi. Ayniqsa, 2022–2024 yillar oralig'ida nikohlar sonining keskin kamayishi va nikoh koeffitsiyentining 7% atrofida shakllanishi demografik xulq-atvor o'zgarayotganini, nikohga kirish yoshining kechikishi hamda ijtimoiy-iqtisodiy omillarning kuchayganini ko'rsatadi.

Nikohdan ajralishlar dinamikasi esa nisbatan teskari yo'nalishda rivojlangan. Tadqiqot davrining boshida ajralishlar soni va ularning koeffitsiyenti past darajada bo'lgan bo'lsa, 2013–2015 yillardan boshlab ajralishlar ko'rsatkichlarida barqaror o'sish kuzatiladi. Ayniqsa, 2021–2023 yillarda nikohdan ajralishlar koeffitsiyenti 1,3–1,4% gacha yetib, butun davr bo'yicha eng yuqori darajani qayd etgan.

Nikoh va ajralish koeffitsiyentlarini solishtirish shuni ko'rsatadiki, nikohga kirish faolligi pasayib borayotgan bir paytda, nikohdan ajralishlar darajasi nisbatan yuqori saqlanib qolmoqda. Bu holat oilaviy munosabatlarda barqarorlikning pasayishi, ijtimoiy moslashuv jarayonlarining murakkablashuvi hamda zamonaviy demografik jarayonlarning ta'siri bilan izohlanadi.

Umuman olganda, jadval ma'lumotlari hududda nikoh institutining sifat jihatidan o'zgarish bosqichiga kirganini ko'rsatadi. Nikohlar sonining kamayishi va ajralishlar koeffitsiyentining oshishi kelgusida demografik siyosatda oilani qo'llab-quvvatlash, yoshlar o'rtasida nikoh barqarorligini mustahkamlashga qaratilgan chora-tadbirlarni kuchaytirish zarurligini taqozo etadi.



Foydalanilgan adabiyotlar

1. Abdurahmonov Q.X. Demografiya: [O'quv qo'llanma]. – Toshkent: Noshir, 2011. – 296 b.
2. Gadoyev K., Berdiyeva S. O'zbek geografiya fani fidoyilari. – Toshkent, 2015.
3. Bo'riyeva M. O'zbekistonda oila demografiyasi. – Toshkent: Universitet, 1997. – 157 b.
4. Qayumov, A.A., Yakubov O'.Sh., Abdullayev A.G. Aholi geografiyasi va demografiya asoslari: o'quv qo'llanma. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2011. – 160 b.
5. Asanov R.G. Aholi geografiyasi. – Toshkent: O'qituvchi, 1990. – 248 b.
6. Soliyev A.S., Jumaxanov Sh.Z., Toshpo'latov A.M. Iqtisodiy va ijtimoiy geografiya [Darslik]. – Namangan: "Mashrab", 2024. – 408 b.
7. Тожиева З.Н. Ўзбекистон Республикасида демографик жараёнлар ва уларнинг ҳудудий хусусиятлари // г.ф.д. (DSc) илмий дар. олиш у-н ёз. дисс. автореферати. – Тошкент, 2017. – 76 б.
8. Караханов М.К. Подготовка и использование квалифицированных кадров рабочих и специалистов в Узбекистане в послевоенный период: автореферат дис. ... канд. экон. наук. – Ташкент, 1958. – 17 с.
URL: <https://search.rsl.ru/ru/record/01006293471>
9. Мулладзянов И.Р., Ата-Мирзаев О.Б., Буриева М.Р. Рождаемость в Узбекистане (рецензия) // Общественные науки в Узбекистане. – 1992. – № 3. – С. 63.
10. O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi Namangan viloyati hududiy statistika boshqarmasi. URL: <https://namstat.uz>
11. O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi. URL: <https://stat.uz>